



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No5(3)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 190 sahifa,  
1-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining innovatsion pedagogik kompetentligini rivojlantirish mexanizmi .....	10
<i>Mirzaraxonova Maftuna Ibroximjon qizi</i>	
Elementlarini integratsiya qilish: nazariy va amaliy yondashuv .....	13
<i>Ne'matov Karimjon Shavkat o'g'li</i>	
O'qish savodxonligi darslarida kitobxonlik kompetensiyasini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari ...	19
<i>Mahmudova Shoirra Shavkat qizi</i>	
O'zbek milliy musiqasi asosida talablarda estetik did va ijro madaniyatini rivojlantirish metodikasi.....	25
<i>Gadoyeva Muborak Jumaqulovna</i>	
O'quvchilarning yozuv kompetensiyasini baholash mezonlarini takomillashtirish masalalari.....	30
<i>Abdurashidova Xafiza Abdurashidovna</i>	
Xurshid Do'st Muhammad qissalarida rivoyatchi strategiyasi.....	34
<i>Uzoqova Nargiza Yuldosh qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda innovatsion texnologiyalarining ahamiyati .....	37
<i>Eshpulatov Shakir Nabiyevich, Ahrorova Ozoda Amriddinovna</i>	
"Xonada o'simliklarni o'stirish" intellekt xaritasi (Mind Map) yordamida o'quvchilarda ekologik tarbiya va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish .....	41
<i>G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarning tashkiliy-pedagogik jihatlari.....	46
<i>Joldasov Ixtiyor Suyundikovich</i>	
Boshlang'ich sinflarda iqtisodiy tarbiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari .....	50
<i>N. Asadov</i>	
Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda kreativ kompetentlik va kasbiy muvaffaqiyat o'rtasidagi bog'liqlik mezonlari.....	53
<i>G. Xamidova</i>	
Gamifikatsiya elementlarining bakalavr talabalarini raqamli resurs yaratishga motivatsiyasiga ta'siri .....	56
<i>Maxkamova Dilshodaxon Xabibjon qizi</i>	
The Influence of Family Parenting Style on the Formation of Primary School Students' Personality .....	59
<i>Berdiyeva Mohloroyim Mirzohid qizi</i>	
Noto'liq oilalardagi onalarning tarbiyaviy uslublari va farzandlarining ijtimoiy-psixologik moslashuvi (O'zbekiston namunasida).....	64
<i>Ismoiljonov Ravshan Baxtiyor o'g'li</i>	
Raqamli pedagogika sharoitida interfaol ta'lim metodlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish.....	69
<i>Jumaniyozova Donoxon Olimboyevna, Bekmuratova Muhayyo Uralbayevna</i>	
Matematika ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning metodik asoslari.....	73
<i>Mirzayeva Shahlo, Qodirova Muattar Ithom qizi, Rovshanova Yulduz Shovkat qizi</i>	
O'qishga motivatsiya tushunchasi uning nazariy-psixologik tahlili.....	77
<i>Azimova Rushana Zokirjon qizi</i>	
Oliy ta'lim talabalarida akademik prokrastinatsiyaning prediktorlari: akademik motivatsiya, umid va shaxs xususiyatlari .....	81
<i>Shodiboyev Shohruh Shuhrat o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlar integratsiyasini ta'minlash metodikasi.....	86
<i>Qahhorova Sevara Alimardonovna</i>	
O'quvchi-yoshlarni virtual olam ta'siridan himoya qilishning nazariy asoslari.....	90
<i>Isayeva Gulii Parpiyevna, Ravshanov Umidjon Abdiqodir o'g'li</i>	



Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tafakkurni oshirishda mantiqiy masalalarning o'rni .....	93
<i>Xilvatova Go'zal Sultonovna</i>	
Pedagogika tarixini o'qitishda talabalarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish .....	97
<i>Jurayev Bobomurod Tojiyevich</i>	
Bolalarda ona tilida tinglash hissini rivojlantirish usullari .....	101
<i>Nurmatova Muxlisa Akmal qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirish (Kahoot, Quizlet va Moodle platformalari misolida) .....	106
<i>Yusupova Shahnoza Abduxafizovna</i>	
Sport maktablarida 16–18 yoshli nayza uloqtiruvchi sportchi-qizlarda portlovchi kuchni rivojlantirish .....	111
<i>Tursunova Surayo Botir qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlashda "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari: amaliyot tahlili .....	115
<i>Gaffarov Azizjon Muhammadsaidovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining faoliyatini samarali tashkil etishning nazariy jihatlari (Learning outcomes) asosida .....	124
<i>Rabbimova Shaxnoza Soyib qizi</i>	
Bo'lg'usi o'qituvchilarda axloqiy madaniyat fazilatlarini qaror toptirishning pedagogik mexanizmlari .....	128
<i>G'aniyeva Sayyora Saidmurod qizi</i>	
Yengil atletikachilarning musobaqa jarayonida tibbiy-pedagogik monitoringini takomillashtirish .....	132
<i>Mamadaliyev Abror Akbarjonovich</i>	
Sun'iy intellekt yordamida rus tilini o'qitish va uning samaradorligi .....	137
<i>Yagafarova Nazilya Rafailovna, Nazarov Sardor, Onorboyev Kamronbek</i>	
O'quvchilarda ilmiy dalillarni tahlil qilish va xulosa chiqarish kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi .....	142
<i>Baymurotova Mukaddas Xamdamovna</i>	
Ilmiy muxokamalarda pragmatik kompetentlikning roli .....	150
<i>Eshbo'riyeva Aziza Muhiddinovna</i>	
Talabalarda kognitiv-pragmatik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning mazmuni .....	155
<i>To'rabekova Aziza Mirzabek qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda motivatsiyani shakllantirishda interaktiv metodlarning o'rni .....	159
<i>Qamchibekova Roziyaxon Xasanboy qizi</i>	
Проблема разграничения понятий "концепт" и "понятие" в современной лингвистике: лингвосомиотический и когнитивно-дискурсивный анализ .....	164
<i>Якунина Ангелина Алишеровна</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida amaliy bezak san'ati naqsh elementlarini raqamli qayta ishlash va arxivlashtirish .....	169
<i>Jabbarov Rustam Ravshanovich</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda Design Thinking texnologiyasining metodik imkoniyatlari .....	176
<i>Amanbayeva Oydin Urazali qizi</i>	
Tez qalamchizgi mashqlarida psixologik-pedagogik yondashuvlarning ahamiyati .....	181
<i>Suyunov Navro'z Alisher o'g'li</i>	
Innovatsion yondashuv orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirish konsepsiyasi .....	186
<i>Xalilov Lenar Shevketovich</i>	



# PEDAGOGIKA TARIXINI O'QITISHDA TALABALARDA TARIXIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH

Jurayev Bobomurod Tojiyevich

Buxoro davlat universiteti "Pedagogika" kafedrası dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

**Annotatsiya:** Pedagogika tarixini o'qitish jarayonida talabalarda tarixiy tafakkurni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Tarixiy tafakkurning mazmuni, tarkibiy qismlari hamda uni shakllantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillar tahlil qilingan. Shuningdek, tarixiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi tayanch kompetensiyalar va zamonaviy pedagogik yondashuvlarning ahamiyati ochib berilgan. Pedagogika tarixini o'qitishda interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar hamda tarixiy-qiyosiy tahlilning samaradorligi asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** pedagogika tarixi, tarixiy tafakkur, tarixiy ong, tarixiy xotira, kompetensiya, innovatsion yondashuv, interaktiv metodlar, pedagogik meros, tarixiy-qiyosiy tahlil, ta'lim jarayoni.

**Abstract:** Theoretical and practical foundations for developing students' historical thinking in the process of teaching the history of pedagogy are highlighted. The essence of historical thinking, its structural components, and the pedagogical factors influencing its formation are analyzed. Particular attention is paid to the role of key competencies and modern pedagogical approaches in the development of students' historical thinking. The effectiveness of interactive methods, innovative technologies, and historical-comparative analysis in teaching the history of pedagogy is substantiated.

**Key words:** history of pedagogy, historical thinking, historical consciousness, historical memory, competence, innovative approach, interactive methods, pedagogical heritage, historical-comparative analysis, educational process.

**Аннотация:** Раскрываются теоретические и практические основы развития исторического мышления студентов в процессе преподавания истории педагогики. Проанализированы сущность исторического мышления, его структурные компоненты, а также педагогические факторы, влияющие на его формирование. Особое внимание уделено роли базовых компетенций и современных педагогических подходов в развитии исторического мышления студентов. Обоснована эффективность интерактивных методов, инновационных технологий и историко-сравнительного анализа в преподавании истории педагогики.

**Ключевые слова:** история педагогики, историческое мышление, историческое сознание, историческая память, компетенция, инновационный подход, интерактивные методы, педагогическое наследие, историко-сравнительный анализ, образовательный процесс.

## KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida bo'lajak pedagoglarning intellektual salohiyati, mustaqil fikrlashi hamda tarixiy ong va tafakkurini rivojlantirish muhim vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, pedagogika tarixi fanini o'qitish orqali talabalarda tarixiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish oliy ta'lim oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Chunki tarixiy tafakkur shaxsning o'tmish voqealarini tahlil qilish, ularning sabab va oqibatlarini anglash, tarixiy jarayonlarga mustaqil baho bera olish hamda tarixiy tajribadan zamonaviy ta'lim amaliyotida foydalanish kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Pedagogika tarixi fani jamiyat taraqqiyoti davomida shakllangan pedagogik g'oyalar, ta'lim-tarbiya tizimlari hamda mutafakkirlarning ilmiy-pedagogik qarashlarini o'rganishga xizmat qiladi. Ushbu fan orqali talabalar qadimgi davrlardan boshlab zamonaviy pedagogik qarashlargacha bo'lgan tarixiy taraqqiyot bosqichlarini tahlil qiladilar, pedagogik merosning mazmun-mohiyatini anglaydilar hamda pedagogik tafakkurning evolyutsiyasini tushunishga erishadilar. Bu esa ularda tarixiy fikrlash, qiyosiy tahlil qilish va tanqidiy yondashuv ko'nikmalarining rivojlanishiga zamin yaratadi.

Bugungi globallashtirish va axborotlashuv sharoitida yoshlarning tarixiy ongini rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan mutafakkirlarning pedagogik qarashlarini o'rganish talabalarda milliy o'zlikni anglash, tarixiy merosga hurmat va pedagogik tafakkurni rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tarixiy tafakkur – bu tarixiy voqea va hodisalarni bilish, tarixiy voqea va hodisalarning o‘zaro munosabati hamda aloqadorligi mohiyatini umumlashtirish orqali tarixiy jarayonlarni anglash, ular o‘rtasidagi sabab-oqibat aloqadorligini hosil qila olish qobiliyatidir [1, 39].

Tarixiy tafakkur insonning tarixiy jarayonlarni anglash, o‘tmish voqea-hodisalarini tahlil qilish hamda ular asosida xulosa chiqarish qobiliyatini ifodalovchi muhim intellektual jarayondir. U shaxsning tarixiy tajribani idrok etishi, jamiyat taraqqiyotidagi o‘zgarishlarni tushunishi va tarixiy merosga ongli munosabat bildirishida namoyon bo‘ladi. Tarixiy tafakkur orqali inson o‘tmish, bugun va kelajak o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni anglaydi hamda tarixiy taraqqiyotning sabab va oqibatlarini baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida pedagogika tarixini o‘qitish jarayonida talabalarda tarixiy tafakkurni rivojlantirishga oid ilmiy-nazariy manbalar, pedagogik adabiyotlar hamda zamonaviy tadqiqotlar tahlil qilindi. Ma’lumotlarni yig‘ishda tarixiy-pedagogik manbalarni o‘rganish, ilmiy maqolalar va monografiyalarni qiyosiy tahlil qilish, pedagogik kuzatuv hamda suhbat metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida pedagogika tarixi fanini o‘qitish jarayonidagi amaliy tajribalar o‘rganilib, talabalar faoliyatini monitoring qilish asosida zarur ma’lumotlar jamlandi.

Tadqiqotda tarixiy tafakkurning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida tahliliy, qiyosiy va tizimli yondashuvlardan foydalanildi. Olingan ma’lumotlar pedagogik tahlil, umumlashtirish va interpretatsiya metodlari asosida qayta ishlanib, tarixiy tafakkurni rivojlantirishning samarali usullari belgilab olindi. Shu bilan birga, interaktiv metodlar va innovatsion texnologiyalarning ta’lim samaradorligiga ta’siri qiyosiy jihatdan baholandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogika tarixini o‘qitish jarayonida tarixiy tafakkurni rivojlantirish talabalarda pedagogik qarashlar evolyutsiyasini tushunish, tarixiy-pedagogik manbalarni tahlil qilish va turli davrlardagi ta’lim tizimlariga qiyosiy yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, tarixiy tafakkur bo‘lajak pedagoglarning kasbiy dunyoqarashini boyitib, ularda milliy pedagogik merosga hurmat, tarixiy xotira va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Tarixiy tafakkur murakkab tuzilishga ega bo‘lib, u bir-biri bilan uzviy bog‘langan bir necha tarkibiy qismlardan iborat. Jumladan:

- tarixiy ong;
- tarixiy bilim;
- tarixiy xotira;
- tarixiy dunyoqarash.

Tarixiy ong orqali talabalar o‘tmish, bugungi davr va kelajak o‘rtasidagi aloqadorlikni tushunadilar. Tarixiy bilim esa tarixiy voqea va pedagogik jarayonlar haqida ilmiy tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Tarixiy xotira milliy va umuminsoniy qadriyatlarni saqlash hamda tarixiy tajribani avloddan avlodga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy dunyoqarash esa talabalarning tarixiy hodisalarga mustaqil va tanqidiy yondashuvini shakllantiradi.

Shu sababli pedagogika tarixini o‘qitishda tarixiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi interaktiv metodlar, tarixiy tahlil, muammoli ta’lim va qiyosiy yondashuvlardan samarali foydalanish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Pedagogika tarixini o‘qitish jarayonida talabalarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish bir qator pedagogik omillarga bog‘liq bo‘lib, ular ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu omillar talabalarning tarixiy voqea va pedagogik jarayonlarni chuqur anglashiga, mustaqil fikrlashi va tarixiy xulosalar chiqarishiga xizmat qiladi.

Tarixiy tafakkurni rivojlantirishning muhim omillaridan biri – milliy tarbiya hisoblanadi. Milliy qadriyatlar, urf-odatlar va pedagogik meros asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotira va ma’naviy qadriyatlarga hurmatni shakllantiradi. Bu jarayonda milliy tarbiya konsepsiyalari, tarbiya metodlari hamda talabaning jamiyatdagi milliy roli muhim o‘rin egallaydi.



Shuningdek, tarixiy tarbiya ham tarixiy tafakkurning shakllanishida asosiy omillardan biri hisoblanadi. Tarixiy jarayonlarning ildizlarini anglash, tarixiy voqealarni tahlil qilish hamda sabab-oqibat aloqadorligini tushunish orqali talabalar tarixiy tajribadan xulosa chiqarishga o'rganadilar. Bu esa ularda kelajakni ongli rejalashtirish va tarixiy jarayonlarga tanqidiy yondashuvni rivojlantiradi.

Pedagogika tarixini o'qitishda o'quvchi shaxsiga yangicha yondashuv ham alohida ahamiyatga ega. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarga ko'ra, talaba ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida namoyon bo'ladi. Individual yondashuv, hamkorlikdagi faoliyat va erkin tanlov imkoniyatlari talabalarning mustaqil fikrlashi hamda tarixiy tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, pedagogning innovatsion faoliyati tarixiy tafakkurni rivojlantirishda muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo'ladi. Pedagogning fasilitator, maslahatchi, tyutor va moderator sifatidagi faoliyati talabalarni mustaqil izlanishga, tarixiy manbalarni tahlil qilishga va muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashishga yo'naltiradi. Interaktiv metodlar, muammoli ta'lim va innovatsion texnologiyalardan foydalanish esa tarixiy tafakkurning samarali shakllanishiga xizmat qiladi.

Pedagogika tarixini o'qitish jarayonida talabalarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish muayyan tayanch kompetensiyalarni shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Mazkur kompetensiyalar talabalarni tarixiy voqea-hodisalarni anglash, tahlil qilish, mustaqil fikr yuritish hamda tarixiy tajribani zamonaviy pedagogik faoliyat bilan bog'lashga tayyorlaydi.

Tarixiy tafakkurni rivojlantirishning muhim kompetensiyalaridan biri motivatsion-kognitiv kompetensiya hisoblanadi. Ushbu kompetensiya talabalarning o'quv-bilish faoliyatiga bo'lgan qiziqishini oshirish, tarixiy bilimlarni o'zlashtirish hamda amaliy faoliyatda qo'llay olish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada talabalarda tarixiy-pedagogik jarayonlarni chuqur anglashga ehtiyoj shakllanadi.

Informatsion kompetensiya tarixiy manbalar bilan ishlash, axborotni izlash, saralash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Talabalar turli tarixiy va pedagogik manbalarni o'rganish orqali axborot madaniyatini egallaydilar hamda tarixiy voqealarga ilmiy yondashishni o'rganadilar.

Kommunikativ kompetensiya esa tarixiy masalalar yuzasidan fikr almashish, munozara olib borish va o'z nuqtai nazarini asoslab bera olish qobiliyatini shakllantiradi. Bu kompetensiya pedagogika tarixi darslarida debat, munozara va interaktiv metodlardan foydalanish orqali rivojlantiriladi.

G'oyaviy-mafkuraviy kompetensiya talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, tarixiy ong va mafkuraviy immunitetni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu kompetensiya orqali talabalar turli g'oyaviy tahdidlarga nisbatan tanqidiy yondashishni o'rganadilar.

Fuqarolik kompetensiyasi talabalarda ijtimoiy faollik, fuqarolik pozitsiyasi va jamiyat oldidagi mas'uliyat hissini rivojlantiradi. Tarixiy tafakkur orqali talabalar jamiyat taraqqiyotida tarixiy tajribaning o'rnini anglaydilar.

Ma'naviy-axloqiy kompetensiya esa shaxsning ma'naviy yetukligi, axloqiy qadriyatlarga hurmat va tarixiy merosga sadoqatini shakllantiradi. Bu kompetensiya pedagogik merosni o'rganish jarayonida yanada mustahkamlanadi.

Akmeologik kompetensiya talabaning o'z ustida ishlashi, shaxsiy rivojlanishi va kasbiy salohiyatini takomillashtirishiga yo'naltiriladi. Aksiologik kompetensiya esa qadriyatlarga asoslangan munosabatlarni shakllantirib, tarixiy-pedagogik tajribaning ahamiyatini anglashga yordam beradi.

Shuningdek, estetik kompetensiya orqali talabalar tarixiy va madaniy merosni estetik jihatdan idrok etish, jamiyat va inson hayotidagi go'zallikni anglash ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Demak, pedagogika tarixini o'qitishda mazkur tayanch kompetensiyalarni shakllantirish talabalarda tarixiy tafakkurning rivojlanishiga, ularning kasbiy va ma'naviy kamolotiga xizmat qiladi.

Pedagogika tarixini o'qitishda tarixiy tafakkurni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy ta'lim paradigmasiga ko'ra, talaba ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida qaraladi va uning mustaqil fikrlashi, tarixiy jarayonlarni tahlil qilishi hamda pedagogik hodisalarga tanqidiy yondashuvi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Kompetensiyaviy yondashuv tarixiy tafakkurni rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv asosida talabalar tarixiy bilimlarni egallash bilan birga, ularni amaliy faoliyatda qo'llash, tarixiy hodisalarga mustaqil baho berish va tarixiy xulosalar chiqarish ko'nikmalarini ham shakllantiradilar.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv esa har bir talabaning individual imkoniyatlari, qiziqishlari va intellektual salohiyatini hisobga olishga asoslanadi. Mazkur yondashuv talabalarning erkin fikrlashi, mustaqil izlanishi hamda tarixiy jarayonlarga nisbatan shaxsiy munosabat bildirishiga imkon yaratadi.

Faoliyatga asoslangan yondashuvda talabalarning amaliy va mustaqil faoliyati ustuvor hisoblanadi. Tarixiy manbalarni tahlil qilish, loyiha ishlari, munozaralar va muammoli vaziyatlarni yechish orqali talabalar tarixiy tafakkur elementlarini amaliy jihatdan egallaydilar.

Tarixiy-qiyosiy yondashuv turli davrlar, pedagogik qarashlar va ta'lim tizimlarini qiyoslash asosida tarixiy jarayonlarning rivojlanish qonuniyatlarini tushunishga xizmat qiladi. Bu yondashuv talabalarni tarixiy voqea-hodisalarni chuqur tahlil qilishga va ular o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqligini aniqlashga o'rgatadi.

Innovatsion yondashuv esa zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli ta'lim vositalari va interaktiv metodlardan foydalanishni nazarda tutadi. Multimedia vositalari, elektron taqdimotlar, virtual ekskursiyalar va raqamli platformalar orqali pedagogika tarixini o'qitish talabalarning tarixiy tafakkurini yanada faollashtiradi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Pedagogika tarixini o'qitish jarayonida talabalarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish ularning kasbiy kompetentligini, mustaqil fikrlashini hamda tarixiy ongini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy tafakkur orqali talabalar pedagogik jarayonlarning rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish, tarixiy tajribani zamonaviy ta'lim bilan bog'lash hamda pedagogik hodisalarga tanqidiy yondashish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interaktiv metodlar va innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish esa tarixiy tafakkurni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Shu bois pedagogika tarixini o'qitishda kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan va tarixiy-qiyosiy yondashuvlarni keng qo'llash talabalarning ma'naviy va kasbiy kamolotini ta'minlashga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xodjayev B. Modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida umumta'lim maktablari o'quvchilarida tarixiy tafakkurni rivojlantirish. – T.: "Fan va texnologiya", 2015. – 288 bet.
2. Ne'matov M. I. Tarixiy tafakkur asosida talabalarda etnopedagogik madaniyatni rivojlantirish // Inter Education & Global Study. – 2025. – № 4. – С. 64–73.
3. Ahmadov O., Saidova O. Ijtimoiy-tarixiy tafakkurni shakllantirish kompetensiyasi // Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. – С. 676229.
4. Жураев Б. Т. Деятельность педагога по гуманизации учебно-воспитательного процесса // Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч.-творч. форума. – 2017. – Т. 31.
5. Жураев Б. Т. Социально-духовное развитие студентов // Россия–Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития. – 2019. – С. 22–23.
6. Juraev B. T. Pedagogical ethics of the teacher: the role of professional duty, justice, and moral responsibility in the educational process // Shokh Articles Library. – 2026. – Т. 1. – № 2.
7. Жураев Б. Т. Духовно-просветительская политика государства Саманидов // Экономика и социум. – 2022. – № 6-1 (97). – С. 553–556.
8. Ходжаев Б. К., Жураев Б. Т. Школьный музей как средство нравственно-эстетического воспитания школьников // Вестник науки и образования. – 2020. – № 10-4 (88). – С. 60–64.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(3)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.